



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Sharof Boshbekovning "Temir xotin" hikoyasi.

Turg'unova Setora

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasining asosiy g'oyalari, tahlili hamda o'sha davrdagi voqealari bo'yicha kengroq qarashni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Qo'chqor, Alomat, Olimjon, Qumri, paxta.

Sharof Boshbekov 1951-yil 4-yanvar Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi G'ubir qishlog'ida tug'ilgan. Shoirning ijodiga nazar soladigan bo'lsak u badiiy adabiyotning eng murakkab turi bo'lgan dramaturgiyada ijod qiladi. Sharof Boshbekov o'zi haqida shunday deydi-"San'at olamiga kirib kelishimning tag'in bir yashirin, o'zimdan boshqa hech kim bilmaydigan sababi bor. Doim ichimda gaplarim ko'p-u, lekin uni eshitadigan odamlarning kamligi meni qiynab kelardi. O'y-xayollarimda faqat bir narsa charx urardi - qaysi kasbni tanlasam, meni ko'proq odam eshitadi? Televideniya va radio suxandonlariga havasim kelardi. Ularni million odam eshitadi. Men-chi? Uydagilar, to'rt-beshta jo'ralar-u, qo'ni-qo'shnilar. Menday odamga bu kamlik qiladi, albatta." Yozuvchining "Temir xotin" komediyasi hozirgi kungacha tomoshabinlar olqishiga sazovar bo'lib kelmoqda. O'tgan asrning 80-yillarida yaratilgan, o'z davrida shov-shuvlarga sabab bo'lgan, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan bu asar hozirgacha sevib o'qiladi. Asar asosida olingan film miriqib tomosha qilinadi. Bu asari uchun O'zbekiston Respublikasi davlat mukofatiga sazovar bo'ldi. Bu pyesa oldin respublika teatr festivalida bosh sovringa loyiq topildi. So'ngra O'rta Osiyo respublikalari orasida o'tkazilgan teatr festivalining g'olibi bo'ldi.

"Temir xotin" komediyasining boshidayoq Qo'chqorning qay ahvolda yashashi va ro'zg'oridagi hamma kamchiliklar eshik-deraza romlarining yarmi bo'yalmagani, yog'och karovatning ham bitta oyog'i yetishmasligi, ko'rpa-yostiqlarga ham yamoq tushgani, piyolalarning va choynaklarning ham kamchilik joylari borligi orqali yoritib berilgan. Qo'chqor obraziga e'tibor beradigan bo'lsak, u faqat daladagi paxta terim ishlari haqida qayg'uradi va dala ishlari haqida gapirganlarini ko'rishimiz mumkin. U ro'zg'oridagi kamchiliklarni to'g'irlash haqida o'ylamaydi. Qo'chqor asarda juda sodda odam timsolida tasvirlangan. Buni biz Olimjon bilan qilgan suhbatida ko'rishimiz mumkin. Qo'chqor Olimjonning hech bir gapiga tushunmaydi. Buni biz ularning suhbatidan bilib olishimiz mumkin. Olimjon aytayotgan kompleks, maksimum, progress, degan so'zlariga umuman tushunmaydi va suhbat jarayonida Olimjon har bir aytga so'zlarini aniqlashtirib bayon qilib beradi. Muallif g'oyaviy maqsadiga mos hamda hayotiy voqealikdan kelib chiqqan holda xarakterlar tanlaydi. Asar garchi komediya janrida



yaratilgan bo'lsa-da, lekin asar syujet yechimi fojia bilan yakun topgan. Chunki yozuvchi o'zining badiiy niyatini yanada to'kisroq ro'yobga chiqarish uchun ham aynan shunday yo'l tutgan.

Asarda Qumri obrazida o'zbek ayollariga xos jihatlar tasvirlangan. Qo'chqor ichib kelganida uni bog'lab qo'yadi va uni insofga keltirmoqchi bo'ladi. Uning "Voy, siz bilan gap sotib o'tirishimni qarang. Shuncha kundan beri tuz tortganingiz yo'q... Hozir bir narsa qivoraman" - degan so'zlari orqali uning naqadar mehribon, sodda ayol ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Qo'chqor har doim o'qiganman deb xotiniga maqtanadi. Lekin, Qumri erining o'qimaganini yaxshi biladi. Erining kamchiliklarini va o'qimaganini yuziga aytib, uni uyaltirishni hoxlamaydi va indamay qo'yadi. Bu orqali biz uning eriga bo'lgan hurmatini ko'rishimiz mumkin. Shuncha yumushni, shuncha tashvishni birgina nozik hilqat, nihol qomat egasi ayol qiladi.

Asarda Olimjon yangiliklarga qiziquvchan, ixtirochi obraz qilib tasvirlangan. U odamlarning ishini yengillashtirish maqsadida paxta teradigan odam yasamoqchi bo'ladi. Chunki, paxta terimi vaqtida hamma o'z ishlarini tashlab dalaga chopardi. Olimjon yasagan robotiga Alomat deb nom beradi. Alomatxon obrazi muallifning g'oyaviy maqsadini ro'yobga chiqarishda asosiy vositalardan biri bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birinchidan, Alomatxon o'sha tuzum fuqarolari ayta olmagan davr nohaqliklarini baralla ayta oladi. Ikkinchidan, muallif bunday siyosiy tuzumga oddiy odam u yoqda tursin, temir ham dosh bera olmasligini ko'rsatib bergan. Tuzumning adolatsizligi, mafkura yalovbardorlarining berahm, beshafqat siyosati oqibatida ezilgan mahalliy xalq davr nohaqliklarini ko'rib dod solish u yoqda tursin, astagina aytishga ham qurbi etmas, qurbi etadiganiga esa yana o'sha siyosiy tuzum yo'l bermagan. O'zi yasagan robotning naqadar jamiyatga foydali ekanligini, paxta terimi deyilgan buyruq kelishi bilan paxta terimiga tushishini, odamlarga o'xshab ro'zg'ori, bolalari haqida o'ylab ham o'tirmay bor e'tiborini paxtaga qaratishini ta'kidlaydi. U robot orqali insonlar hayotini yengillashtirmoqchi bo'ladi. Asarda Alomat orqali Qo'chqorning hamma kamchiliklari bayon qilinadi va biz Qo'chqor robotning gaplariga bardosh beraolmay yig'lab yuborganini ko'rishimiz mumkin. Alomat orqali hamma kamchiliklar aytib o'tilgan. Muallif xalqning hamma dardini, dod-fig'onini, achchiq alamlarini gipnozda ko'tarib chiqqadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bu komediya orqali millat fojiasi, alamli og'riqlar aks etgan. Millatning naqadar soddaligi, paxta degan buyruq kelishi bilan hamma narsani yig'ishtirib qo'yishi, bolalarning o'qishi nima bo'lyapdi bu bilan hech kimning ishi yo'qligi achinarli ahvolda aks ettirilgan. Agar ozgina noliqudek bo'lsa noshukurga chiqadi, haqiqatni talab qilaman desa, "tili chiqib qolgan" bo'ladi. Ortiqcha dam olgudek bo'lsa "tanbal kelin" degan nom oladi. Unda ham ko'ngil borligi, asablari charchashi, jismi



zaiflashishi, kayfiyatsiz bo'lishi hisobga olinmaydi. Hatto temir yaramay, tutab ketadigan ketadigan mehnatlarga o'zbek ayoli yonmasligi, doim xizmatga shay "labbay" deb turishi, har hunarni qoyillatishi, yegan nonini oqlab qo'yishi, qo'ydek yuvvosh bo'lishi kerak. Biz ayollarimizni qadrlamas, ularning zaifligini hisobga olmas, yelkasidagi yukni ko'tarishga yordam bermas va ma'nan qo'llamas ekanmiz, kelajagimiz buyuk bo'loshiga umid qilmasak ham bo'laveradi. Shu bilan birgalikda, Qo'chqorning Toshkentga ikki marta borib kelganligi bilan faxrlanishi xalqning naqadar sodda, ilmsizligini ochib bergan. Paxtani terayotgan odamlar paxtani kim uchun teryapdi, terilgan paxta qayerga ketayotganligini o'zlari ham bilmasdi. Hech kimning bu savollarni bermasligi, tepadan kelayotgan buyruqlarga so'zsiz itoat qilishi o'sha davrdagi insonlarning qay dara-jada ilmsiz ekanligini isbotlab bergan. Ular faqat paxta terimini tezroq tugatish, paxtalarni yig'ib olish kerakligini bilardi. Asarda davr fojiasi kulgili yo'sinda o'z aksini topgan va shunga muvofiq tarzda komediya syujeti shakllantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boshbekov Sh. "Temir xotin" 2013 Toshkent.
2. Adabiyot 9-sinf darslik Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Toshkent 2019
3. Hotam Umurov, Adabiyotshunoslik nazariyasi, Darslik, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, Toshkent 2004.
4. www. Ziyouz. Com